



Semantic characteristics of select toponyms in the Uzun district

Dilorom KAYUMOVA ¹

Secondary School No. 53

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

toponyms,
hydronyms,
macrotoponyms,
microtoponyms.

ABSTRACT

This article examines research related to the study of toponyms in Uzbek linguistics, while also providing brief information about certain toponyms in Uzun district and their origins. In particular, it discusses the distinctive aspects of place naming in the region.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss8/S-pp189-194>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Uzun tumanidagi ayrim toponimlarning semantik xususiyatlari

Kalit so'zlar:

toponimlar,
gidronimlar,
makrotoponimlar,
mikrotoponimlar.

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek tilshunosligida toponimlarni o'rganish bilan bo'g'liq tadqiqotlar haqida fikr yuritilar ekan, shu bilan birga, Uzun tumanidagi ayrim toponimlar va ularning nomlanishi haqida ham qisqacha ma'lumotlar berilgan. Xususan joylarning nomlanishidagi o'ziga xos jihatlar haqida ham to'xtalib o'tiladi.

Семантические особенности некоторых топонимов Узунского района

Ключевые слова:

топонимы,
гидронимы,
макротопонимы,
микртопонимы.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются исследования, связанные с изучением топонимов в узбекском языкознании, а также даются краткие сведения о некоторых топонимах и их

¹ Teacher, Secondary School No. 53, Denov district

наименованиях в Узунском районе. В частности, затрагиваются особенности наименования мест.

Tilshunoslikda toponimlar va ularning qo'llanishi muhim sohalardan biri hisoblanadi. Zero har bir nom ostida botinan inson tafakkuri yotadi [1]. Tarixchilar, geograflar uchun o'rganish obyekti hisoblanganidek, biz tilshunoslar uchun ham toponimlar va ularning nomlanish sabablari muhim tadqiqot obyektlaridan biridir [2].

Toponimika sohasi bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lib, ularga E. Begmatovning "Joy nomlari - ma'naviyat ko'zgusi", H.Hasanovning "O'rta Osiyo tarixiy geografiyasi va toponimiyasi", S.Qorayevning "O'zbekistonning hozirgi va qadimgi joy nomlari", "O'zbekiston viloyatlari toponimlari", Sh.Qodirovaning "Toshkent shahar mikrotoponimlari", Yo.Xo'jamberdiyevning "Surxondaryo", T.Nafasovning "O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati", Z.Choriyevning "Tarix atamalarining qisqacha lug'ati", Sh.Safarov va I.Umarovning "Ayrim toponimlar", S.Tursunovning "Surxondaryo viloyati toponimlari" va boshqalarning qimmatli asarlarini keltirishimiz mumkin [3].

"Tarixiy izlanishlar natijasida toponimlarning nomlanishiga asos bo'luvchi bir qancha jihatlar mavjudligi e'tirof etiladi"[1]. Ular quyidagilar:

- joy nomlarining tabiati, relyefi bilan bog'liq holda;
- ma'lum shaxs nomi bilan bog'liq holda;
- afsona va asotirlar bilan bog'liq holda joy nomlari mahalliy xalq yoki

ma'lum bir davlat organlari tomonidan qo'yiladi.

Shu jihatdan olib qaralganda har bir qo'yilgan nom zamirida o'sha hudud insonlarining dunyoqarashi, tafakkur olami, o'y-fikrlari, orzu- umidlari o'z aksini topadi. Xususan, Surxondaryo hududi toponimikasi lug'atini tuzgan S.Tursunov vohada o'n besh mingga yaqin toponimlar mavjudligini ta'kidlaydiki, binobarin bu miqdor bizga ma'lum qismigina xolos. Muallif kitobida ko'proq Boysun, Denov, Sho'rchi, Sherobod tumanlari toponimikasi bo'yicha izlanishlar olib borganlig, ammo Uzun tumani toponimlariga esa uncha e'tibor qaratmagan.

Ushbu maqolada Uzun tumanidagi ayrim makro- va mikrotoponimlar hamda ularning semantikasi haqida birqancha ma'lumotlar berib o'tishmoqchimiz [4].

Tumandagi toponimlar haqida to'xtalar ekanmiz, avvalo ularning "ko'pdan-ko'p axborotlar-tarixiy, geografik, etnografik ma'lumotlar tashishini" e'tibordan chetda qoldirmasligimiz kerak, albatta.

Uzun tumanidagi toponimlarni tasnif qilishda Y.Xo'jamberdiyevning tasnifi[3] dan foydalangan holda ularni quyidagi guruhlariga ajratdik:

etnik belgi asosida yaratilgan toponimlar:

Turkmanqishloq – Oq-tumshuq mahallasi tarkibiga kiruvchi bu qishloq hududida turkman millatiga mansub aholi bir qancha vaqt istiqomat qilgan. Hozirda qishloqda turkmanlar yashamasa-da, nom hali-hanuz qo'llanib kelinmoqda.

Tojikqishloq – bu qishloq hududida faqat tojik millatiga mansub aholi istiqomat qilgani uchun ham aynan shu nom bilan mahalliy o'zbeklar tomonidan shunday nomlangan.

Qovchin – shu nom ostidagi urug' nomidan olingan. Qishloq hududida qovchin urug'iga mansub ko'plab istiqomat qilishgan.

Bahoritojik – aholisining asosiy qismini tojiklar tashkil etadi. S.Tursunovning “Surxondaryo viloyati toponimlari” asarida bu nom *Bohorifors* nomi bilan tilga olinadi va bu toponimning etimologiyasi haqida to’xtalar ekan, Baxori – *buxorolik* so’zidan kelib chiqqanligi va qishloqdagi aholi buxorodan kelgan forslar qishlog’i[1] ekanligini aytadi. Mahalliy aholi orasida tojik va forslar tilining o’zaro yaqinligi sabab bir xil nom bilan *tojik* deb atala boshlagan.

Tojikobod – bu qishloqda ham aholi tojik millatiga mansub hisoblanadi. Tojiklar tomonidan o’zlashtirilib, obod bir manzilga aylangani sabab ham shunday nomlangan degan qarashlar mavjud.

Beshbola – bu nom mikrotoponim bo’lib, Mustaqillik qishlog’i hududida joylashgan. Bu hududda beshbola urug’iga mansub aholi istiqomat qilgan. Aholi bu hududdan ko’chib ketgan bo’lsa-da, nom saqanib qolgan.

1) Kishi nomlari asosida vujudga kelgan toponimlar:

Ashirjilon – qishloqning nomlanishi haqida ikki xil qarash mavjud. Xususan, qishloqdagi kishilar bilan suhbatlashganimizda qishloq taxminan 1930-40- yillarda tashkil etilgan bo’lib, hudud to’qayzor hudud bo’lganligi va bu nom Ashur ismli inson bilan bo’g’liq va u shu joyda ilon(*jilan*) ko’rgan shundan so’ng shunaqa atala boshlagan degan bo’lsa, tarixchi olim S.Tursunov o’zining “Сурхандарё вилояти топонимлари” asarida shunday ta’riflaydi: *Ashur* – arabcha kishi nomi. *Jilon* – o’ta ayyor kishi [5]; etnonim, to’liq shakli *jilontamg’ali*. Surxon vohasi juzlari boxtamg’ali va jilontamg’ali kabi ikki guruhga mansub. Xorazmda qo’ng’irotlarning shunday urug’i bor. Qishloq hududida XIX asrning oxiri XXasr boshlarida juzlar urug’i yashagan. Ashur ismli kishi esa juzlarning jilontamg’ali urug’iga mansub bo’lgan[1]. Bundan ko’rinadiki, ushbu toponimni ham antoponimlar bilan ham etnonimlar bilan bog’liq holda shakllangan.

2) Diniy tushuncha va tasavvular bilan bog’liq toponimlar:

Eshonqishloq – qishloq tumanning Tojikiston bilan chegaradosh hududiga yaqinroq joylashgan bo’lib, qishloqda eshonlar ko’p istiqomat qilishgani uchun ham shu nom bilan atalgan.

Langar – tuman hududidagi qishloqlardan birining nomi bo’lib, shu nomdagi qabrison ham mavjud. Ushbu nomdagi hudud va qabrison Qashqadaryo viloyatining Qamashi tumanida ham mavjud. Rivoyatlarga ko’ra shu nomdagi avliyoning qadami tekkani uchun ham shu nom bilan atalgan. Manbalarda ko’rsatilishicha, *langar* so’zi quyidagi ma’nolarni anglatadi: ibodatxona, karvonsaroy, g’aribxona, yomxona, musofirxona, xonaqoh, darbozcho’p. Eng qadimgi ma’nosi ibodatxona, to’xtash joyi[1] demakdir.

3) Hayvon va jonivorlar nomlari bilan bog’liq joy nomlari:

Do’ngizo’ldi – Bobotog’ tizmasida joylashgan tog’li hudud bo’lib, tik tog’lar-u jarliklardan iborat. Aynan shu sabab to’ng’iz(do’ng’iz) o’ladigan joy deb atalgan va keyinchalik mahalliy aholi tilida Do’ng’izo’ldi shakliga kelgan.

Quyonsoy – tog’li hudud bo’lib, bu hududda quyonlar juda ko’p bo’lgani uchun ham shunaqa deb atalgan degan qarashlar bor [6].

4) Son va miqdor bilan bog’liq joy nomlari:

Beshtom – qishloq tog’oldi hududida joylashgan. Sobiq SSSR davrida ushbu hududni o’zlashtirish maqsadida aholini ko’chirish uchun beshta uy qurilgan. Yerlik aholi shevasida uy- tom ham deb yuritiladi.

Beshkapa – besh va kapa so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, kapa bu poliz ekinlari boshida quriladigan boshpana hisoblanadi.

Duob - “du”- forscha ikki, “ob” esa suv demakdir. Bu hudud mahalliy aholi tilida Dug'ob deb ham yuritiladi. Ya'niki, ikki suv yo'li tutashgan joyda joylashgan. Qishloq Bobotog' tizmasida joylashgan.

5) Obyektning joylashish o'rne, tabiati, xususiyatlari bilan bog'liq toponimlar:

Qursoy(Quruqsoy) – bu nom oykonimdan toponimga aylangan bo'lib, hudud tog'oldi zona hisoblanadi. Bu hudud tabiati faqatgina bahorda yomg'ir va qorlarning yog'ishi natijasida biroz jonlanadi. Ammo bahor yarimlasha borgan sari yomg'ir kam yog'ishi natijasida suvsizlikdan o't-o'lanlar so'lib bitadi. Ba bu holat erta bahorgacha davom etadi [7].

Damma – band demakdir. Bahorda sel kelib, aholi uylariga ziyon berishi natijasida sel keluvchi soy yo'llari berkitilgan, damma qurilgan. Shuning uchun ham bu hudud damma qurilgan joydan degan ma'noda damma deb atalgan.

Oqtumshuq – tumshuq - bo'rtib yaqqol ko'rinib turgan joy. Ya'ni adir yoki jarlikning atrofdan yaqqol ko'zga tashlanishi. Mahalla nomi ko'zga tashlanuvchi oq tepalik (oronim)dan kelib chiqqan.

Jonchekka – qishloq hududi Surxondaryoga quyiluvchi Qoradaryo bo'yida joylashgan. Qadimda bu hudud to'qayzor bo'lgan. Savdogarlar qaroqchilardan jon saqlash uchun shu yerda yashirinib, jon saqlashgan. Shu uchun ham hudud jon chekka deb atalgan.

Arg'amchi – Bobotog' tizmasi yonbag'irlarida joylashgan qishloq hududi adirliklardan iborat. Olisdan qaralganda qir-adirlar bir-biriga tutashib ketganidan arg'amchini esga soladi. Bundan tashqari rivoyatlarda keltirilgan So'fi Olloyor hazratlarining say'- harakatlari bilan Bobotog'da joylashgan Govurgan g'origa yo'l olgan ilonlar galasi ham ma'lum muddat shu yerda to'xtab o'tganligi ma'lum. Ular dam olgan tepalikda hech qanday giyh o'smasligi fikrimizni dalillaydi.

Qo'shqoq – adirliklarda joylashgan bu hududning asosiy ichimlik suvi bahorda to'planib qoladigan xalqoblardan iborat bo'lgan. Mahalliy qishloq aholisi tomonidan qoq (suv to'planishi uchun soy, daralarda to'g'onlar qilinib, suv yo'li to'siladi)lar qilingan. Va qishloq nomi ham aynan shu nomdan olingan.

Loyliq – qishloq hududi adirlar yonbag'rida joylashgan bo'lib, bahorda bu hududlar sel kelishi natijasida loyqa ostida qolgan va botqoqliklardan iborat bo'lgan. Keyinchalik sobiq SSSR davrida sel keluvchi soyliklar yo'li o'zgartirilib, hududda Aeroplan qurilgan. Hozirda bu qishloq nomi Xalqabod bo'lib, Mustaqillik mahallasi tarkibiga kiruvchi qishloqlardan biridir.

Chaqar – bu qishloq Qoradaryo bo'yida joylashgan. Qishloq hududi chakalakzor bo'lgan. Shu sababdan ham bu hududda chaquvchi turli hashorot va hayvonlar ko'p bo'lgan. Shu nom bilan ataladigan hududlar respublikamizning turli hududlarida ham mavjud.

6) Har xil bino va predmetlar hamda ularga aloqadorlik asosidagi toponimlar:

Oqmachit – mahalla Bobotog' tizmasidagi joylashgan.

Metex – qishloq nomi. Qishloq hududida 1960- yillarda MTS (mashina-traktorlar stansiyasi) mavjud bo'lgan. Va keyinchalik bu obyekt nomi qishloq nomidaga aylangan. Va hozirda qishloq rasmiy jihatdan Mustaqillik deb nomlansa-da, mahalliy aholi tilida joriy nomi saqlanib qolgan.

Oq-ostona – shu nom ostida ziyoragoh, qabrison va mahalla mavjud. Ushbu ziyoratgoh sahobalardan biri Abu Hurayra r.a.ning qadamjosi hisoblanadi va xalq orasida Oq-ostona bobo nomi bilan juda mashhur. Rivoyatlarga ko'ra shu nom ostidagi yana bir qadamjo mavjud bo'lib, u Tojikiston Respublikasida joylashgan. Ushbu maqbaraning qurilishi bilan bog'liq rivoyatlarda ushbu inshoot bir kechada Allohning karomati ila bunyod bo'lganligi aytiladi.

7) O'simlik nomlari bilan bog'liq joy nomlari:

Terak – qishloq Bobotog' tizmasida joylashgan va u ikki qism Qo'ng'irotterak va Do'rmonterakdan iborat.

Qorali – olchaning bir turi hisoblanadi. Nom tojikcha qora va olu so'zlaridan tarkib topgan.

Baqati – nom bog'ot so'zining mahalliy aholi tilida o'zgargan shakli bo'lib, bog'ot tojik tilida bog'lar degan ma'noni anglatadi.

8) Gidronimlar bilan bo'liq toponimlar:

Anorbuloq (Anorbuloq) – Bobotog' tizmasida joylashgan qishloq. Nom gidronimdan toponimga o'tgan. Buloq artofiga anor ekilganligi sabab anorli buloq deb atalgan va keyinchalik ikki qism birikib Anorbuloq shakliga kelgan [8].

Surxonboshi – nom bevosita Surxandaryo daryosi nomi bilan bo'g'liq bo'ib, hudud Surxon daryosining boshlanish joyida joylashgan.

9) Istiqloldan keyingi davrlarda paydo bo'lgan zamonaviy nomlar:

Mustaqillik – mahalla va qishloq nomi hisoblanadi. Nom mustaqilligimizning bir yilligi munosabati bilan berilgan. Ungacha qishloq nom Metes (MTS) bo'lgan [9].

Mustaqillik 22 – mustaqilligimizning 22 yilligi munosabati bilan nomlangan.

Yangi ro'zgor – taxminan 1930- yillarda Farg'onadan majburiy ko'chirib kelingan aholi evaziga shakllantirgan kolxoz nomidan mahalla nomiga ko'chgan. Bu nom Farg'onadan kelgan yosh oilalarga ramziy ma'noda qo'yilgan va hozirda ham shu nom bilan atalib kelinmoqda [10].

Yangishahar – qishloq Shahrinav mahallasidan ajralib chiqqanligi uchun ham aynan shu nom bilan atalgan. Sababi Sharinav so'zining leksik ma'nosi ham forsha shahar va nov- yangi so'zlaridan iborat.

Maqolada keltirilganidek, ko'pchilik toponimlarning nomlanishi xalq hayoti, turmush tarzini qisman aks ettiradi. Tog'li hududlardagi toponimlarda soy, buloq, qoqlar joy nomlarining tarkibiy qismi sifatida yuzaga chiqadi. Aholisining asosiy qismi dehqonchilik, bog'dorchilik bilan shug'ullanuvchi joy nomlarida ham aholining mashg'uloti aks etmasdan qolmasligi fikrimizga dalil bo'la oladi. To'g'ri nomlar orasida ramziy ma'noda tanlanganlari ham yo'q emas va bu holatda aholi ramziy nomga munosib bo'lishga harakat qilishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бўриев, О., Искадаров, Ш., & Хўжаёров, А. (2022). Абу Райхон Бериунийнинг “Хиндистон” асари ноёб этнографик манба сифатида. Academic research in educational sciences, (3), 399-411.
2. Iskandarov, S. (2020). O 'zbekiston arablarining til xususiyatlari va etnolingvistik o 'zgarishlar. Uzbekistan: Language and Culture, 2(2).
3. Ниёзова, Н. Ш. (2022). Сущность и значения книга Абу Райхан Бериуний «Минерология» («Китаб ал-джамахир фи ма 'рифат алджавахир») (Doctoral

dissertation, Abu Rayhon Beruniy ilmiy-madaniy merosining ahamiyati va uning fan taraqqiyotidagi o'rni).

4. Текуев, М. М., Хуболов, С. М., & Мизиев, А. М. (2018). Структурно-семантические особенности карачаево-балкарских топонимов с зоонимической основой. Филологические науки. Вопросы теории и практики, (10-1 (88)), 174-178.

5. Ниёзова, Н. Ш. (2014). Здоровый образ жизни и гигиеническая культура. The Way of Science, 50.

6. Искандаров, Ш. А. (2017). ОБ ЭТНИЧЕСКОЙ ИСТОРИИ АРАБОВ УЗБЕКИСТАНА И СВЯЗАННЫХ С НЕ ЭТНОТОПОНИМАХ. Вестник антропологии, (4), 38-46.

7. Ниёзова, Н. Ш. (2022). ИНСОН ҚАДР-ҚИММАТИ ВА ҲУҚУҚИНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ-ФАРОВОНЛИК ГАРОВИ. Academic research in educational sciences, 222-223.

8. Турсунов С. Сурхандарё вилояти топонимлари. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008.

9. Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. – Toshkent: Navro'z, 2017.

10. Xo'jamberdiyev Y. Surxandaryo viloyati Ko'hitang tog' va tog'oldi miktoponinlari lug'ati. – Termiz, 2011.